

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATION TEXNOLOGIYALARI

ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРО- ФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИ- ТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

INTEGRATION TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE HISTORY TEACHERS

BOBOYOROV SHUHRATJON SUVONQULOVICH
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA. Maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirishda integratsion texnologiyalarning o'rni va imkoniyatlari yoritilgan. Integrativ yondashuv asosida loyiha metodi, veb-kvestlar, tarixiy simulyatsiyalar hamda muammoli ta'limning qo'llanilishi natijasida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ushbu texnologiyalar kasbiy kompetentlikni samarali shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, integratsion texnologiyalar, bo'lajak tarix o'qituvchisi, integrativ yondashuv, interfaol metodlar, veb-kvest, tarixiy simulyatsiya.

АННОТАЦИЯ. В статье освещаются роль и возможности интеграционных технологий в формировании профессиональной компетентности будущих учителей истории. На основе интегративного подхода анализируются вопросы развития профессиональных знаний и навыков студентов посредством применения метода проектов, веб-квестов, исторических симуляций и проблемного обучения. Результаты исследования показывают, что интеграционные технологии служат эффективному формированию профессиональной компетентности будущих учителей истории.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, интеграционные технологии, будущий учитель истории, интегративный подход, интерактивные методы, веб-квест, историческая симуляция.

ABSTRACT. This article highlights the role and potential of integration technologies in developing the professional competence of future history teachers. Based on an integrative approach, it analyzes the advancement of students' professional knowledge and skills through the application of the project method, web-quests, historical simulations, and problem-based learning. The research results demonstrate that integration technologies effectively contribute to the development of the professional competence of future history teachers.

Keywords: professional competence, integration technologies, future history teacher, integrative approach, interactive methods, web-quest, historical simulation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida bugungi o‘quvchi-yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni amalga oshirish zarurligi, jumladan innovatsion va texnologik g‘oyalarni har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarini yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil etish kabi vazifalar belgilab berilgan edi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi zamonaviy ta’lim paradigmalarida tarix fanini zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy pedagogik hamda innovatsion texnologiyalar yordamida o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchilardir. Zamonaviy o‘qituvchi faoliyati bilimlarni uzatuvchi oddiy metodist sifatida emas, balki “o‘qituvchi- texnolog” nuqtayi nazardan baholanishi kerak. Texnologiya – bu shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o‘zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir. “Texnologiya” tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta’sir etish kuchiga ega bo‘lib, erkin ijod qilishga undaydi. Bugungi kun zamonaviy bo‘lajak tarix o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan talablar fanni chuqur tahliliy o‘rganishiga qaratilgan bo‘lib, ko‘proq o‘tmish voqeligini innovatsion texnologiyalar yordamida, bugungi kun bilan bog‘liqlikda o‘rganishni talab etadi. Zamonaviy tarix o‘qituvchisi fanni quyidagi jihatlar asosida o‘rganishi hamda faoliyat ko‘rsatishi muhim hisoblanadi: interdisipliner yondashuv (tarix fanini boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganish. Misol uchun iqtisodiyot, falsafa, adabiyot, sotsiologiya); zamonaviy yondashuv (raqamli tarix vositalaridan keng foydalanadi. Misol uchun tarixiy kontent

va podkastlardan); har tomonlama ochiq ilmiy tadqiqot (ilmiy tadqiqot ishlarini faqat o‘quv-qo‘llanma, darsliklarda emas, turli xil podkastlar, ommaviy axborot vositalari orqali yetkazish); “Tarix fanini o‘qitishda ham boshqa fanlar qatori ma’lum bir yutuqlarga erishish, o‘quvchilar faolligini oshirish va albatta, shu qatori o‘qituvchining ham kasbiy mahoratini rivojlantirish eng asosiy maqsad hisoblanadi”. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta’lim sohasida, o‘quv faoliyatida talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Innovatsion texnologiyalar ta’limni amalga oshishi jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. “O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalari orqali talabaning bilishga oid, axborot bilan ishlash, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetik imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi lozim. Innovatsion, kompyuter va axborot texnologiyalarini talabalar shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak”. A.Y. Yasterbitskayaning fikricha, “XX asrning ikkinchi yarmi va ayniqsa uning so‘nggi yigirma yilligi – tarixiy o‘tmishni o‘rganishga yangi ijtimoiy-madaniy yondashuvlarga asos solingan va ijtimoiy tarix sifatida “tarix fan” tamoyillari shakillangan davrdir. Bu madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy tarixning yangi qirralarini tez sur‘atlarda kengaytirish va ilmiy olamga ko‘pgina yangi empirik materiallarni kiritish vaqtidir. Mazkur davrga shuningdek tarixni ilmiy fan sifatida metodik-metodologik qayta jihozlash, uning tadqiqotchilik instrumentariysini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘ri keladi”. Bugungi kun o‘qituvchisi oldida yagona axborot makoni rivojlanib borishi uning kasbiy rivojlanishiga bo‘lgan intilishiga ham ta’siri kuchli bo‘lmoqda. Ayniqsa gumanitar fanlarni o‘qitishda

kompyuter texnologiyalari va axborot bilan ishlash, fanlararo integratsiyani raqamli va integrativ vositalarga diversifikatsiyalash, ya'ni aloqalarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar, ineteraktiv platformalar, elektron ta'lim resurslari hamda integrativ pedagogik vositalardan kompleks foydalanish orqali ta'lim jarayonining mazmuni va texnologik imkoniyatlarini kengaytirishdan yanada keng foydalanishni talab qiladi. Bugungi kunda tarix darslarida bo'lajak tarix o'qituvchisidan, yuqori professionallik, tarixiy bilimlardan foydalanish samardorligini oshirish talab qilmoqda. Innovatsion ta'lim sharoitida tizimni rivojlantirishda tarix ta'limini raqamlashtirish muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda oliy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi. Innovatsion ta'limsharoitidabarchafanlardanqo'llanilgani kabi tarix fanini o'qitish jarayonida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirib qolmay o'qituvchi uchun ham o'quvchilar bilan ishlashda

birmuncha qulayliklar yaratadi.

“Texnologiya” tushunchasi fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan – “texnos” (techne) – san'at, hunar va “logos” (logos) – fan so'zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma'nosini anglatadi” Pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchidan fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik bilim, ko'nikma va malakani ham talab etadi, ya'ni o'qituvchi qaysi texnologiya yoki metod qaysi mavzu uchun qulay va o'rinli ekanligini bilishi uchun, avvalo, shu texnologiyalar haqida kerakli bilimga ega bo'lishi muhim sanaladi. “Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egalashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmualiy yondashuv usulidan foydalanishdir.

Biz tadqiqotlarimiz jarayonida integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi integratsion pedagogik texnologiyalarni tahlil qildik:

Integrallashgan o'quv mazmunini yaratish texnologiyasi	Nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash texnologiyasi
Tadqiqotga asoslangan ta'lim texnologiyasi	Fanlararo integratsiyani ta'minlash texnologiyasi
Epistemologik yondashuvni ta'minlash texnologiyasi	Refleksiv ta'lim muhitini tashkil etish texnologiyasi
Raqamli va innovatsion ta'lim muhitini yaratish texnologiyasi	Qadriyatga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish texnologiyasi
Hamkorlikka asoslangan ta'limni tashkil etish texnologiyasi	Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish texnologiyasi

Ilmiy tadqiqotlarda o'quv mazmunining integratsiyasi, avvalo, fan mazmuni va pedagogik bilimlarning uyg'unlashuvi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon “pedagogik mazmuniy bilim” konsepsiyasi bilan izohlanadi.

Nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash texnologiyasi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra,

o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanib qolmasligi, balki ularning real pedagogik faoliyatda qo'llanishi orqali mustahkamlanishi zarur. Shu bois nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi o'qituvchi tayyorlash jarayonining metodologik asosi sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, nazariya va amaliyotning ajralib qolishi o'qituvchining

kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim to'siqlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotga asoslangan ta'lim texnologiyasi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida bilim tayyor holda beriladigan mahsulot sifatida emas, balki izlanish, tahlil va muammolarni hal etish jarayonida egallanadigan faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotga asoslangan ta'lim muhitini tashkil etish bo'lajak tarix o'qituvchisining ilmiy fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'lim jarayoni savol qo'yish, muammo aniqlash, dalillarni izlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish bosqichlari asosida tashkil etilishi ta'kidlanadi. Bu jarayon talabaning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va uni ilmiy izlanish faoliyatiga jalb etadi.

Fanlararo integratsiyani ta'minlash texnologiyasi. Zamonaviy ta'lim tizimida bilimlar alohida fanlar doirasida emas, balki o'zaro bog'langan holda o'rganilishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bois fanlararo integratsiya o'quv jarayonini kompleks va tizimli tashkil etishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Fanlararo integratsiya mohiyatan turli fanlarga oid bilimlar, tushunchalar va metodlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali yangi bilimlar tizimini shakllantirishni anglatadi. Tarix fani o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirrali bo'lib, u iqtisodiyot, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, geografiya, sotsiologiya va falsafa kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli tarixni o'qitishda mazkur fanlar bilan aloqadorlikni ta'minlash bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlarda fanlararo integratsiya talabalarda tizimli va kompleks fikrlashni shakllantiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Fanlararo yondashuv orqali talabalar tarixiy hodisalarni faqat vaqt va makon doirasida emas, balki iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa tarixiy

jarayonlarning mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Raqamli va innovatsion ta'lim muhitini yaratish texnologiyasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimi paradigmalarda innovatsion texnologiyalarini fanlararo integratsiyalashni raqamli va integrativ vositalarga diversifikatsiyalashda yangi talablarni qo'yimoqda. Shu bois raqamli muhit o'qituvchining mustaqil ta'lim olish va o'z ustida ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur texnologiyani amalga oshirishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Elektron darsliklar, raqamli arxivlar, virtual muzeylar, tarixiy xaritalar va multimedia materiallar tarix fanini o'qitishda keng imkoniyatlar yaratadi. Bu vositalar orqali tarixiy voqealarni vizual tarzda namoyish etish, ularni chuqurroq anglash va tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Raqamli va innovatsion ta'lim muhitini yaratishda interaktiv metodlardan foydalanish ham muhimdir. Onlayn platformalar, veb-kvestlar, test tizimlari, tarixiy simulyatsiyalar va virtual muhitlar talabalarni faol o'rganishga jalb etadi. Bu esa ularning o'quv motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur muhitni tashkil etishda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish alohida e'tiborni talab etadi.

Shu o'rinda Veb-kvest – internet tarmog'i resurslari asosida tashkil etiladigan muammoli-tadqiqotchilik xarakteridagi ta'lim texnologiyasi bo'lib, unda ta'lim oluvchilar ma'lum bir topshiriq yoki muammoni hal etish uchun veb-manbalardan foydalanadilar. Ushbu texnologiya talabalarning mustaqil izlanish, axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida veb-kvestlardan foydalanish tarixiy manbalarni o'rganish, tarixiy voqea va jarayonlarni tahlil qilish, turli nuqtayi

nazarlarni qiyoslash hamda ilmiy xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Talabalar internetdagi ilmiy maqolalar, elektron kutubxonalar, arxiv hujjatlarini va raqamli tarixiy resurslar bilan ishlash orqali tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Veb-kvest texnologiyasi odatda kirish, topshiriq, jarayon, axborot manbalari, baholash va xulosa qismlaridan iborat bo'lib, ta'lim oluvchilarning faol ishtiroki va hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlaydi. Natijada bo'lajak tarix o'qituvchilarida axborot-kommunikatsion, tadqiqotchilik, tanqidiy fikrlash va kasbiy kompetensiyalar samarali shakllanadi.

Xulosa o'rnida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvga asoslangan metodik tizim ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mazkur tizimning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks rivojlantirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent, 2019.
3. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va professional ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 220 b.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
6. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 192 b.